

QISHKI MAVSUMDA AVTOMOBIL YO'LLARIDA HARAKAT XAVFSIZLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI

Xolxo'jayev Elmurod Muxtorovich – Jizzax politexnika instituti
“TVM” kafedrasida assistenti, e-mail: elmurodmuxtorov01@gmail.com
tel: +998 97 524 24 79

Xamrayev Zoxidbek Djambulovich – Jizzax politexnika instituti
Tadqiqot ishlari assistenti, e-mail: zohid09121979@gmail.com
tel: +998 91 569 06 12

Annotatsiya: Ushbu maqolada avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini tashkil etish, yo'l harakatini tashkil qilishning asosiy maqsad va vazifalari hamda yo'l harakati xavfsizligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlarni takomillashtirish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yo'l harakati, xavfsiz harakat, transport oqimi, avtomobil, haydovchi, yo'l, piyoda, yo'l-transport hodisasi, harakat qatnashchisi, qonun, me'yoriy hujjatlar, yo'l tarmoqlari, tirbantlik, tezlik, yo'l sharoitlari, tartibsiz harakat, piyodalar o'tish joylari.

Аннотация: В данной статье описаны организация безопасности дорожного движения на автомобильных дорогах, основные цели и задачи организации дорожного движения, а также методы совершенствования мероприятий, направленных на повышение безопасности дорожного движения.

Ключевые слова: дорожное движение, безопасное движение, транспортный поток, автомобиль, водитель, дорога, пешеход, дорожно-транспортное происшествие, участник дорожного движения, закон, правила, дорожные сети, пробка, скорость, дорожные условия, нерегулярное движение, пешеходные переходы.

Abstract: The article describes the organization of road safety on highways, the main goals and objectives of the organization of road traffic, as well as methods for improving measures aimed at improving road safety.

Key words: road traffic, safe traffic, traffic flow, car, driver, road, pedestrian, traffic accident, road user, law, rules, road networks, traffic jam, speed, road conditions, irregular traffic, pedestrian crossings.

Avtomobil yo'llaridan transport vositalarini xavfsiz, tez va uzluksiz xarakatlanishi uchun doimiy transport-foydalanish sifatini ta'minlab turishi lozim. Bu jarayon avtomobil yo'llaridan foydalanish deb ataladi. Yo'llar kechayu-kunduz, yil davomida avtomobillarni tez va qulay va xavfsiz harakatlanishini ta'minlashi kerak. Yo'ldan foydalanishda unda turli xil deformatsiyalar va buzilishlar, yo'l qatnov

qismini o'tkazuvchanligini o'zgartirib yuboradi. Shuning uchun yo'ldan foydalanish davrida yo'llarda deformatsiya va buzilishlarni oldini oladigan ishlar bajariladi[1].

Yo'l qoplamasi va to'shamasining turli xil xarakterdagi va o'lchamdagi deformatsiya va buzilishlari, turli xil murakkablikdagi ta'mirlash ishlarini o'tkazishni ko'zda tutadi. Ta'mirlash va saqlash ishlari qo'yidagi turlarga bo'linadi:

1. Saqlash;
2. Joriy ta'mirlash;
3. O'rtacha ta'mirlash;
4. Kapital ta'mirlash.

Yo'lni qayta qurish - yo'lni va yo'l jihozlarini to'liq bo'lishi, uni geometrik o'lchamlarini yanada yuqoriroq toifaga o'tkazishda me'yoriy texnik hujjatlar talabiga javob berishi kerak.

Tasdiqlangan me'yoriy hujjatda yo'lni saqlash va ta'mirlash ishlarini vaqtinchalik turlari bo'yicha ishlar 2 ga ajratib qo'yilgan.

Yo'llarni saqlash va ta'mirlash - o'z ichiga quyidagilarni oladi. O'rta va kapital ta'mirlash, saqlash esa o'z ichiga joriy ta'mirlash, saqlash, qishgi saqlash va ko'kalamzorlashtirish ishlarini o'z ichiga oladi[2].

Ta'mirlashning vazifasi avtomobil yo'lini va inshootlarini geometrik o'lchamlarini me'yoriga keltirish, mustaxkamlik va boshqa texnik sifatlarini talab qilgan darajaga moslashtirish va transportdan foydalanish sifatlarini oshirishdan iborat. Avtomobil yo'lidagi ta'mirlash ishlarini birgalikda olib borish kerak, bir vaqtda yo'ldagi inshoot va ta'mirlash talab etiladigan elementlar ta'mirlanadi. Yo'lni saqlash va ta'mirlashda loyiha-smeta xujjatlari tuziladi. Avtomobil yo'llarini ta'mirlash mujassamlashgan ishlar, unda emirilgan qoplama tiklanadi, ravonlikni yaxshilash, tiklash va g'adir-budirlikni oshirish yo'l to'shamasini kuchaytirish, yo'l poyi va inshootlarni, mustahkamrog'iga va iqtisodiy jixatdan arzon turiga almashtirish, shu bilan birga muxandislik jixozlari bilan yo'lni jixozlash. Yo'lni saqlash yil bo'yi olib boriladigan mujassamlashgan ishlar bo'lib, unda yo'l jixozlari, toza holatda saqlash, kichik deformatsiyalarni va yo'l element konstruksiyalarini va inshootlarini ta'mirlash, shu bilan birga harakatni tashkil qilishni yo'lga quyish kiradi. Ta'mirlash ishlari quyidagicha tayinlanadi: yo'llarni bahor paytida saqlash, suv qochirish tizimini saqlash, yo'l to'shamasini buzilishdan saqlash, yo'llarni qishki sharoitda saqlash.

Avtomobil yo'llarini qishki sharoitda saqlash quyidagi, tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- yo'llarni qor oqimidan saqlash;
- yo'llarni qordan tozalash;
- qor ko'chkilaridan yo'llarni muxofaza qilish.
- qishki sirpanchilikka qarshi chora-tadbirlar.

Avtomobil yo'llarini qishki saqlash darajasiga ko'ra yo'llar 3 guruhga bo'linadi.

1. Qatnov qismi toza bo'lgan yo'llar;
2. Qatnov qismi toza bo'lmagan yo'llar;
3. Zichlangan qor qatlamidan tashkil topgan qatnov qismi.

Xar bir yo'lni qishki saqlash darajasi texnik-iqtisodiy hisoblar asosida, qishki saqlash uchun yo'l xizmati mashinalarini ta'minlanganligi talab qilinadi.

Qishki saqlash chora-tadbir kompleksiga quyidagilar kiradi: profilaktik chora-tadbirlar; undan maqsad yo'llarda muz va qor yotqiziqlarini paydo bo'lishini maksimum kamaytirish, yo'lda qor miqdorini kamaytirish, qoplamaga profilaktik ishlov berish ya'ni kimyoviy muzlamaslikka qarshi moddalar va boshqalar.

Muxofaza chora-tadbirlar: yo'lga kelayotgan qor va muz oqimini maxsus to'siqlar yordamida kamaytirish.

Tozalash bo'yicha chora-tadbirlar: xamma yo'llarda qordan tozalanish o'sha zaxotiy oq boshlanadi. Tozalash ishlarini olib borayotganda, bir vaqtning o'zida ham qatnov qismidan xam yo'l chetidan qorni tozalash talab etiladi, bunda yo'l chetidagi qor uyumlarining to'dalanib qolmasligini xisobiga olish zarur.

Tozalash usulini hosil bo'lgan qor qatlamini balandligiga qarab, qordan tozalash tezligi tanlab olinadi. Bunda muvofiq ravishda qor tozalash mashinalari tanlanadi. Barcha qor tozalash mashinalari uzoq muddat ishlashi uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak. Buning uchun ularni kabinalari issitilishi va ko'rinish yaxshi bo'lishi uchun sharoit yaratib berish anjomlari o'rnatilgan bo'lishi lozim.

Qish vaqtida yo'l qoplamalari sirpanchiq bo'lib qoladi, chunki ular muz qatlami yoki zichlangan sirpanchiq qatlam bilan yopilgan bo'ladi. Shinalarning muzlagan qoplama bilan tishlanish ko'effitsienti 0,05-0,08 gacha kamayadi.

Qishda qoplama sirpanchiligi juda ko'p yo'l transport hodisalariga sabab bo'ladi. Ko'p hollarda yo'l sharoiti tufayli katta miqdordagi moddiy zarar kelib chiqadi. Qishki mavsumda yo'llarda harakat tezligi pasayadi, bu esa avtotransportdan foydalanish samaradorligini va ishlab chiqarishni kamaytiradi. Qoplama muzlashi $t=0^{\circ}\text{S}$ ga yaqin va xavo namligi 90-95 % bo'lganda kuzatiladi.

Qishki sirpanchilikka qarshi chora-tadbirlarni murakkab va qimmatligi tufayli ularni qo'llash cheklangan bo'lib, faqat yo'lning xavfli uchastkalaridagina ya'ni, ko'tarilish, tushish, kichik radiusli egriliklarda, chorraha va temir yo'l kesishmalarida olib boriladi[3].

Sirpanchilikka qarshi kurashni bir qancha usullari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- fraksion;
- kimyoviy;
- mexanik.

Ko'pincha ishlatiladigan usullardan biri bu - aralash ya'ni, ximiyaviy-fraksion usuldir. Unda fraksion materialni NaCl , CaCl_2 ga aralashtirib sochiladi. Sirpanishga

qarshi ishlatiladigan qattiq va suyuq xloridlar agressiv ximik ta'sirga egadir. Ular avtomobil metallini yemirilishi, temir-beton ko'prik elementlarini yemirilishiga va o'simlik dunyosiga, ya'ni tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eng muhim jihat shundan iboratki, qishki mavsum uchun tayyorgarlik jarayonlari yoz-kuz mavsumida puxta ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.

Shunday qilib, qishki mavsum uchun avtomobil yo'llarini saqlash va tuzatish xizmatining asosiy masalalari quyidagilar:

- o'z vaqtida yo'ldagi deformatsiyalarni tuzatish;
- yo'lning o'tkazuvchanligiga iqlim omilini ta'sirini baholash (qor, yomg'ir, shamol);
- yo'ldagi yaxmalakka qarshi kurashish;
- qish mavsumida harakat miqdorini va og'ir yuk avtomobillari harakatini chegaralash;
- qish mavsumida yuklarni tashish uchun temir yo'l xizmatidan foydalanish foizini oshirish;
- noqulay yo'l uchastkalaridagi harakat xavfsizligini ta'minlash;
- yo'lning ishlashini mavsum davomida hisobga olib borish;
- qishki mavsumdagi yo'l transport hodisalarini hisobini yuritish va tahlil qilish;
- qishki mavsum uchun harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha alohida chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini tashkil etish borasidagi turli chora tadbirlar harakat xavfsizligini oshishiga, yo'l transport hodisalarining kamayishiga, yo'llarda harakatlanishning murakkab bo'lmasligiga xizmat qilishi lozim. Ayniqsa ushbu ishlarni qish mavsumida sifatli bajarish inson hayotini saqlab qolish hamda yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararni minimallashtirishga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov Q.X. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. TAYI. 1999 yil. 182-bet.
2. Yo'l harakati qoidalari. Rasmiy nashr. Toshkent, 2001-83bet.
3. Азизов Қ.Х. “Проблемы обеспечения безопасности дорожного движения”, Республиканский научно-технический конференция “Развитие автомобильно-дорожного комплекса Республики Узбекистан в условиях ркночной экономики. Ташкент, 1997., стр.24-26.
4. В.Ф. Бершадский, Н.И. Дудко. “Безопасность движения автомобиля”, Минск, “Ураджай”, 2001-96с.

5. Илларионов В.А. и др. Правила дорожного движения и основа безопасного управления автомобилем. -М.,Транспорт,1998-448с.
6. Мишурич В.М. Романов А.Н. “Надежность водителя и безопасность движения”. М., 1990-170с.
7. Boliqul o'g, M. U. B., & Ismoiljon o'g'li, S. A. (2023). JAMOAT TRANSPORTLARI YO 'NALISHLARIDA HARAKAT MIQDORI VA TARKIBINI TADQIQ QILISH. Scientific Impulse, 1(7), 793-798.
8. O'G'Li, U. I. I., & O'G'Li, S. A. I. (2022). Tirbandlik kuzatilayotgan shahar ko 'chalarida transport oqimining asosiy tavsiflarini o 'rganish. Mexanika i texnologiya, (Specvypusk 2), 177-188.
9. O'G, M. U. B. B., & O'G'Li, S. A. I. (2022). Avtomobillar xarakat xavfsizligiga faol ta'sir qiluvchi ekspluatatsiyaviy ko 'rsatkichlari. Mexanika i texnologiya, (Specvypusk 2), 123-128.
10. Sultanov, A., Khazratkulov, A., Khursanov, F., & Hamidov, Y. (2024, March). Experimental study of the engine with additional air on natural gas fuel in “Ravon Nexia 3”. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3045, No. 1). AIP Publishing